



DIALEKTAL FRAZEOLGIZMLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Islomova Shoira,

*Xalqaro innovatsion universiteti O'zbek filologiyasi va
jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi*

CHARACTERISTICS OF DIALECTICAL PHRASEOLOGISMS

Islomova Shoira,

*Teacher of the Department of Uzbek Philology and
Journalism, International Innovation University*

ОСОБЕННОСТИ ДИАЛЕКТАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛГИЗМОВ

Исламова Шоира,

*Преподаватель кафедры узбекской филологии и
журналистики Международного инновационного
университета*



E-mail: shoiraislomova67@gmail.com

Orcid: 0009-0008-5105-6043

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15283474>

Аннотация: Ushbu maqolada dialektal frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til frazemalaridan farqli jihatlari, shuningdek, dialektal frazeologik birliklar yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari va ularda ko'rsatilgan dialektal frazemalarning o'lchov-mezonlari haqida fikr yuritiladi.

Калит so'zlar: dialekt, frazeologik birlik, sheva, lug'at, o'lchov-mezon, qipchoq shevasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются специфические особенности диалектных фразеологизмов, их отличия от словосочетаний литературного языка, а также проведенные исследования по диалектным фразеологизмам и критериям измерения диалектной фразеологии, проявленной в них.

Ключевые слова: диалект, фразеологизм, говор, словарь, мера-критерий, кыпчакский диалект.

Abstract: This article discusses the specific features of dialectal phraseological units, their differences from literary language phraseology, as well as research studies on dialectal phraseological units and the criteria for measuring dialectal phraseology indicated in them.

Keywords: dialect, phraseological unit, dialect, dictionary, criterion, Kipchak dialect.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Nutqning tayyor materiallaridan biri hisoblangan frazeologizmlar til vakillari tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, tildan-tilga ko'chib kelmoqda. Ularni o'rganish, to'plash filologik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy. Chunki barqaror birikmalar til egalarining o'tmish hayoti, an'ana va turmush-tarzi, badiiy tafakkuri, adabiyot va san'ati, urf-odatlar kabi milliy-madaniy, ijtimoiy voqelik haqida ham muhim axborot va bilimlarni o'zida



mujassamlashtiradi. Iboralar paydo bo'lishi jihatidan uzoq davrlarga borib taqalsa-da, ularning ilmiy asoslardagi tadqiqi bir necha yuz yilnigina o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda frazeologik birliklar tadqiqi XVIII asrdan boshlab amalga oshirib kelinayotganligi manbalardan ma'lum. Biroq o'zbek dialektal frazeologiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarini yetarlicha deb bo'lmaydi. Adabiy til lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti xalq shevalari bilan uzviy bog'liq ekan, ularning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan dialektal frazeologizmlarni o'rganish alohida yondashuv, tadqiqotlarni taqozo qilib turadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Dialektal frazemalar yuzasidan alohida tadqiqot ishi amalga oshirilmagan, biroq shevaga xos leksik birliklar o'rganilgan ishlarda ba'zan frazeologik birliklar tilga olingan o'rinlar uchraydi. Jumladan, qipchoq shevalari tadqiqotchisi tilshunos X.Doniyorov dialektal frazeologizmlar ustida ham tadqiqotlarni amalga oshirib, mavzu doirasidagi masalalarning ilmiy talqiniga katta hissa qo'shdi. "[1.80-85] Toshkent shevasi frazeologiyasi yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan T.Sodiqov 1968-yilda "Toshkent oblasti shevalari leksikasi"[2.279] nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ushbu dissertatsiyaning uchinchi bobi sheva frazeologiyasiga bag'ishlangan edi. Farg'ona guruh shevalari frazeologiyasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan H.Uzoqov "Dialektal frazeologizmlar haqida"[3.60] nomli maqolasida dialektal iboralarning adabiy til doirasidagi o'rni va ahamiyati xususida to'xtalib, adabiy tilda mavjud bo'lmagan hamda adabiy tildan leksik farq qiluvchi faqat shevaga xos frazeologizmlar tahlilini amalga oshiradi. Sh.Shomaqsudov va S.Dolimovlar "Qayroqi so'zlar"[4.60] asarida turli tabaqa va kasb vakillari nutqida qo'llaniladigan uch mingga yaqin iborani alifbo tartibida joylashtiradi, ularning qisman etimologiyasini ham keltiradi. M.Hamidovning Janubiy Surxondaryo shevalaridagi barqaror birikmalar yuzasidan amalga oshirgan tadqiqot ishida dialektal frazeologizmlar masalasiga ham e'tibor qaratib o'tiladi. [5.178]

Maqolada muammoni yoritishda tavsiflash, qiyoslash metodlari tatbiq qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Adabiy tildagi iboralarning bir qismi dialektlarda qo'llanmaydi, yoki boshqacha variantda uchraydi. Keng iste'molda bo'lgan dialektal frazemalar esa adabiy til tarkibidan o'rin olmagan. Dialektal frazemalarning qaysi jihatlarini o'rganish, adabiy tilda mavjud frazemalarning shevadagi variantlari yoki keng iste'molda bo'lgan dialektal frazemalarni adabiy til tarkibiga kiritish yuzasidan nazariy fikrlar o'zbek tilshunosligida ishlab chiqilmaganligi uchun ham dialektal frazemalar bo'yicha alohida tadqiqot ishlari olib borilmaganligi ma'lum bo'ladi.



Shevashunos olimlarimiz tomonidan dialektal frazemalarning o'ziga xos xususiyatlari, shevaga xos asosiy belgisi, adabiy til frazemasidan farqli jihatlari kabi farqlash tamoyillari ishlab chiqilgan. Jumladan, X.Doniyorov "Qipchoq dialektlarining leksikasi" asarida dialektal frazemalar haqida to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etadi. "So'z va frazemalar sostavida tilning nisbatan turg'un va chidamli qismi bo'lgan fonetik, xususan, grammatik xususiyatlari ham mavjudki, ular juda sekin o'zgarishi, asrlar davomida tilning mustahkam yodgorligi sifatida saqlanib qolishi bilan birga, o'z tarkibida qadimgi elementlarini va xususiyatlarini ham saqlab qoladiki, bunday xususiyatlar orqali shu so'z yoki frazeologizmlar kimning "moli" ekanligini, ya'ni kimga, to'g'rirog'i, qaysi xalq, qaysi til yoki dialektga mansub ekanligi aniqlanadi". [6.103] Olim biror frazemaning shevaga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash uchun quyidagi o'lchov-mezonlarni keltiradi;

- a) adabiy tilimizda ham uchrashi uchramasligi;
- b) shu shevada gapiruvchi aholining turmushi bilan qanchalik bog'langanligi;
- v) uning shevalik xususiyatini o'zida qanchalik aks ettirishi;
- g) uning qadimgi elementlardan qaysi til va dialektlarga mansub bo'lgan qonuniyat va xususiyatlarni saqlab qolganligiga bog'liqdir.

O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari yuzasidan kuzatuv ishi olib borgan K.Bozorboyev tadqiqotida so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan iboralarning dialektal nutqqa, funksional uslublarga munosabati izohlanadi. Tadqiqotchi so'zlashuv nutqi frazeologizmlari va ularning xarakterli belgilari adabiy tilda qo'llaniluvchi frazeologizmlarga ko'p jihatdan o'xshashligi, lekin shu bilan birga o'ziga xos belgi xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi va quyidagilarni keltiradi.

"So'zlashuv nutqi frazemalari o'zining leksik tarkibi bilan adabiy tildagi frazeologizmlardan farqlanadi. Chunki frazeologizmlarning ma'nosi komponentlariga bog'liq bo'lmagan holda kelib chiqadi;

Frazeologizmlar , struktural jihatdan turgun birikmalar bo'lib, ular semantik jihatdan monolog birlikdir.7.

Frazeologizmlar obrazli so'z birikmasi sifatida ajralib turadi. Obrazlilik belgisi frazeologizmlarning jonlilik, ta'sirchanlik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Frazeologizmlar tarkibida hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan, tushunilmaydigan so'zlar bo'ladi.

Frazeologizmlarning komponentlarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki ular bir-biri bilan chatishib ketgan. Shu jihatdan ularni bo'laklarga ajratish, ayrim so'zlarini almashtirish ham mumkin emas.



Leksik polisemiyada bo'lganidek frazeologik polisemiyada ham bosh va yasama ma'no farqlanadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no to'g'ri ma'noga, yasama ma'no esa ko'chma ma'noga teng bo'lsa, frazeologik polisemiyada bosh ma'no ham ko'chma ma'noda bo'ladi. Chunki har qanday frazeologik ma'no ko'chma ma'no hosilasidir.

Frazeologik sinonimiya so'zlashuv, nutqida ko'p uchraydi. Ular ma'no qirralari va tuzulishining xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Vaziyatga qarab har bir sinonim turli ma'nolarni ifodalaydi.

O'zbek adabiy tilidagi frazeologizmlarning taxminan to'rtidan biri sinonimik munosabatga ega. Bu fikr o'zbek so'zlashuv nutqida qo'llanuvchi frazeologik sinonimlarga ham xos. Lekin so'zlashuv nutqida mavjud bo'lgan frazeologik sinonimiya adabiy tilga nisbatan boy va rang-baranglikka egadir.

Frazeologizmlarda ham variantlashish xususiyati mavjud. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, frazeologik variantlar ikkiga ajratiladi: leksik variantlar struktural o'zgarishga uchragan variantlar".[7.12-14]

Shevashunos olim S.Ashirboyev "shevadagi frazemalar o'rganilganda, adabiy tilda ham qo'llanadigan, lekin fonetik strukturasi sheva xususiyatini ko'rsatadigan frazemalar tadqiqot materiali sifatida olinmasligi kerakligini, bunda frazemaning shu shevagagina xos emasligi e'tiborga olinishini" hamda "dialektal frazemalarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish o'rinli ekanligini ta'kidlaydi.

"sheva frazemasida tarkibidagi har bir so'z adabiy tilda mavjud bo'lsa-da, frazema ma'nosi shevaga xos bo'ladi: *bavur bosdi* iborasi bavur (bag'ir) bosmoq so'zlaridan tashkil topgan va o'zbek adabiy tilida bag'riga bosdi birikmasida kelishi ma'lum, shevada esa bu frazema bo'lib, bavur basip kedi iborasida haddi sig'di, sog'inib keldi ma'nolarini bildiradi.

sheva frazemasida tarkibidagi ayrim so'z faqat dialektal bo'ladi va frazema ma'nosi ham dialektal bo'ladi: *tanasi turchikti* tarkibidagi ikkinchi so'z adabiy tilda qo'llanmaydi, u behuzur bo'lmoq ma'nosini anglatadi.

frazema tarkibidagi ayrim so'zlarning ma'nosi unitilgan bo'ladi: *ko'kayimdan ketmaydi* iborasidagi ko'kay so'zi alohida olinganda shevada ma'nosi unitilgan, frazema salbiy xarakterga ega bo'lgan voqea-hodisani unuta olmasligini anglatadi. Lekin ma'nosi sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi.

Frazema tarkibidagi ayrim so'zlar adabiy tildagi ana shu so'zlarning kuchli fonetik o'zgarishga uchragan varianti bo'ladi: *dibish chiqardi* iborasi adabiy tildagi



tovush chiqardi birikmasining o'zi, lekin u shevada oldindan ma'lum qildi, ovoza qildi frazeologik ma'nosiga ega.

Sheva frazemalari tarkibidagi so'z adabiy tildagi frazemadagi shu so'zning sinonimi bo'ladi: *buyuri chiqti* frazemasida adabiy tilda biqini chiqdi iborasiga formal jihatdan teng bo'lib, buyur so'zi biqin so'zining boshqa turkiy tillarda va shevadagi sinonimidir. *Biqini chiqdi* frazemasida adabiy tilda to'ydi ma'nosida qo'llansa, *buyuri chiqdi* frazemasida shevada huzur qilib ovqatlanish ma'nosini bildiradi".[8.21-25]

Ko'rinadiki, X.Doniyorov dialektal frazemaning o'ziga xos asosiy belgilaridan biri fonetik jihati ekanligini qayd etsa, S.Ashirboyev esa frazemaning fonetik strukturasi uning shu dialektga tegishli ekanligini ko'rsatmasligini ya'ni boshqa hududlarda ham uchrashi mumkinligini ta'kidlaydi. Bizningcha ham frazemaning fonetik o'zgarishi iboraning qaysi dialektga yoki adabiy tilga mansub ekanligining asosiy belgisi emas (yoqasini ushladi yoki jog'asini ushladi). Faqat frazema tarkibidagi so'z kuchli fonetik o'zgarishga uchrasa (*qarong'uda qarindoshingning davushi belgisi*), (*ibora tarkibidagi davush so'zi tovush so'zining kuchli fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir*), *singa kirmoq* (*ibora tarkibidagi sin so'zi son so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli*) dialektal xususiyatni saqlagan frazema sanaladi.

Dialektal frazemalarining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda ko'zga tashlanadi.

Dialektal frazemalar tarkibida qadimiy va sof o'zbekcha so'zlar saqlanib qolgan bo'lib, sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi: *bavrasa (bavuriga olsa) botir bo'lur* – *ko'maklashsa, qo'llab-quvvatlasa o'sib unadi* ma'nosida qo'llaniladi. Ibora tarkibidagi *bavur* – *yag'rin* ma'nosini anglatgan.[9.179]

Har bir hududda, biror sohaning rivojlanishi natijasida, shu hududda yashovchi aholi tilida, boshqa hududlardan farqli ravishda asosiy mashg'uloti bilan bog'liq frazemalar vujudga keladi. Jumladan, Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillarining asosiy qismi chorvachilik, to'quvchilik (ayollar mashg'uloti) sohalari bilan shug'ullanadi. Bu soha bilan bog'liq birliklar, ularning tilida mavjud bo'lgan frazemalar tarkibiga singdiriladi. *Ovzi oqarib qoldi* – *sut, qatiq mo'l bo'ldi, ovziga tuz solmoq* – *so'ymoq, so'yish uchun mo'ljallamoq (chorva mollarini), qulovi qochmoq* – *bo'ysinmadi, yo'rig'iga yurmadi, qo'y mijoz singari*.

Til egalarining e'tiqod qo'ygan tushunchalari frazema tarkibidan joy oladi. Janubiy Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari bo'ri hayvoniga omad, qo'rqmas, botirlik ramzi, it hayvoniga vafodor do'st sifatida qarashgan. Bu nom bilan bog'liq frazemalar ularning nutqida talaygina: *ovga chiqqan bo'riday, bo'ri bir kechada yetti suvlatni kezadi, bo'ri orqasiga qaramaydi, bo'rini gapirsang qulog'i ko'rinadi, bo'ri qo'shnisiga hujum qilmaydi yoki it yegasini tanimaydi, itdan qushdan qarz, itining*



xarakteri yegasiga ma'lum, iti ketmoq, it jenganini tolar, itam Baraka toppaydi, it boylasa turg'usiz, itdan beabriy qildi, itga dori bo'ldimi kabi.

“Dialektning har bir shevasida o‘z turmush sharoiti, xo‘jaligi va urf-odatidan kelib chiqqan o‘ziga xos frazeologik iboralar borki, ular o‘sha sheva yoki bir necha (shu tipdagi) shevalarda uchrasa, boshqasida yo‘q yoxud boshqacha formada uchraydi. Bulardan ba‘zilari adabiy tilda o‘z ma‘no xususiyatini saqlagan holda (fonetik o‘zgarishlar bilan) uchrasa, boshqalarini adabiy tilga o‘zlashmaganini ko‘ramiz.”

XULOSALAR.

Haqiqatan ham, har bir shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik jihatdan o‘ziga xosliklari mavjud, shevalarga xos har bir hodisaning o‘z o‘rni, ma‘no va vazifasi borki, ularni ilmiy jihatdan tekshirish, tilimiz, madaniyatimiz tarkibida tutgan o‘rni va ahamiyatiga baho berish, ularning zamonaviy shakl va formatdagi lug‘atlarini yaratish shevashunosligimizning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дониёров Х. Ўзбек тили “ж” лашган (қипчоқ) диалектининг фразеологияси устидан кузатишлар // Фразеология масалалари, СамДУ асарлари, янги серия, 106-чиқиши. – Самарқанд, 1961. – Б. 80-85.
2. Содиков Т. Тошкент область ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – Б. 279.
3. Узоқов Х. Диалектал фразеологизмлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, №6. – Б. 60.
4. Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти 2011. – Б. 224.
5. Namidov M. O‘zbek tili janubiy Surxondaryo o‘zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari: Diss. – Termiz, 2023. – Б. 178.
6. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б – 103.
7. Бозорбоев К. Ўзбек тилида сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001. – Б. 12-14.
8. Аширбоев.С. Хидралиева.З. Шева фразеологиясини ўрганиш тажрибасидан // Ўзбек тилшуноослигининг долзарб масалалари, 2015.№3ю – Б. 21-25.
9. Ат-тухфатуз закияти фил-луғат-ит туркия. — Тошкент: Фан, 1968. – Б. 179